

**NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN FITONIMLARNING  
HOZIRGI KUNDAGI MUQOBILLARINI QIYOSIY O'RGANILISHI**

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОТИВНИКОВ  
ФИТОНИМОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В РАБОТАХ НАВОИ

A COMPARATIVE STUDY OF THE MODERN OPPONENTS OF THE  
PHYTONYMS USED IN NAVOI'S WORKS

**Usmanova Maxfuza Sadikovna**

**JDPI, katta o'qituvchi**

**Annototsiya :** Ushbu maqolada Navoiy asarlarida keltirilgan o'simlik dunyosiga oid so'zlardan namunalar va hozirgi kundagi nomlarini qiyoslanishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'simlik nomlari, shakl, ma'no, qiyoslash

Аннотация: В этой статье рассматривается примерк слов, касающихся растительному миру приведенных в произведениях Навои. А также сравнения наименований сегодняшнего времени.

**Ключевые слова:** наименование растений, форма, значение, сравнение.

Annotation: This article discusses examples of words relating to the plant word, which were given in the works of Navoi and also comparing the names of today

**Key words:** names of plants, form, meaning, comparison

Ulug' Alisher Navoiy asarlari tafakkur gulshani bo'lish bilan birga, g'oyat boy so'z xazinasi hamdir. SHoir asarlarida o'zbek xalqi turmush tarzi va dunyoqarashining barcha sohalariga oid so'z va iboralarni uchratish mumkin.

O'simlik nomlari har bir xalq tilida ma'lum qatlamni tashkil qiladi. O'simlik nomlarida shu xalq yashab kelgan tarixiy-geografik hududga va iqlimga mos keluvchi nabotot olami ko'lami ham namoyon bo'ladi.

Navoiy asarlari o'z mazmun-mundarijasiga ko'ra juda boy bo'lib, unda turkiy-o'zbek xalqi turmush tarzining, ruhiy va ma'naviy olamining turli sohalariga oid so'zlar mavjud. SHulardan biri o'simliklar olamiga mansub so'zlardir. Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simlik nomlari doirasida gul so'zi ishtirokida so'z yasalihi keng tarqalganligi, bu morfema vositasida 50 dan ortiq yasalgan so'z mavjudligi qayd qilinadi. SHuningdek, uning asarlarida lola, nilufar, sandal, sarv, suman va g'uncha so'zlari vositasida yasalgan so'zlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ma'lumki, boshqa so'zlardan farqli o'laroq, o'simlik nomida shu o'simlikning «tupi» tushunchasi ham, «mevasi» tushunchasi ham, «guli» tushunchasi ham ifodalanadi. Uning «tupi», yoki «mevasi», yoki «guli» ma'noda ekanligi nutqiy birlikdan (kontekstdan) anglashiladi. G.H. Ne'matova to'g'ri ta'kidlaganidek, «*O'zbek tili o'simlik nomlari leksemalarining ma'naviy qiymati «o'simlik», «hosil», «mahsulot» kabi asosiy semalarni o'z ichiga oladi va nutqda sharoit, qurshov so'zlari ta'siri ostida bu ma'nolardan birini voqealantiradi*».<sup>[1]</sup>

O'simlik nomlari doirasidagi so'zlarning yasaliush usuli (ayni morfologik usul) bo'yicha Navoiy asarlari tili va hozirgi o'zbek tili qiyoslanganda ma'lum farq mavjudligi ko'rinadi. G. Ne'matovanning qayd etishicha, hozirgi o'zbek tilida morfologik usulda yasalgan o'simlik nomlari alohida mavqega ega: «*O'simlik nomlari leksemalari tarkibidan katta miqdorda yasama so'zlar ham o'rin olgan. Bu xazinani boyitishda (ot) sifati + - **cha**), (ot)sifati + - **ak**) va xususan, (ot + - **i**) so'z yasaliush qoliplari alohida mavqega egadir*».<sup>[1]</sup>

Ushbu so'zlarning qadimda qanday qo'llanganligini aytib o'tish ham talabalarda qiyoslash uchun yordam beradi. Navoiy asarlarida keltirilgan o'simlik dunyosiga oid so'zlardan namunalar keltirishimiz va hozirgi kundagi nomlarini qiyoslashimiz ham mumkin, masalan:

<b>Navoiy asarlari tilida qo'llanilgan o'simlik nomlari</b>	<b>Hozirgi o'zbek tilidagi muqobili</b>
<b>Giyoh</b>	Yosh o'simlik, o't-o'lan
<b>Nabot</b>	giyoh, o't-o'lan
<b>Dona</b>	urug', don
<b>Tuxm</b>	o'simlik urug'i
<b>CHigit</b>	G'o'za (paxta) o'simligining urug'i
<b>Nabotot</b>	o'simliklar (umumiy nom, ko'plik shaklida)
<b>Qomg'oq</b>	o'simlik (umumiy nom o'rnida)
<b>Alaf</b>	o't-o'lan, ko'kat
<b>O'lang</b>	o't-o'lan, giyoh
<b>Anor</b>	anor, qizil gullaydigan daraxt va uning mevasi
<b>Rummon</b>	nor
<b>Zardolu i</b>	o'rik mevasi

<b>Lemu</b>	Limon
<b>Naxlbun</b>	xurmo daraxti
<b>Nor</b>	anor

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan o'simliklar nomlari va ular bilan bog'liq so'zlarning ko'pchiligi hozirgi o'zbek tiliga ayni shakl va ma'noda, fonetik shakli biroz o'zgargan ko'rinishda, ma'nosida biroz o'zgarish yuz bergan tarzda yetib kelgan. Masalan: arpa (arpa), budg'ay//bug'day (bug'doy), chechak (chechak, maysa), o't (o't, maysa), qamish (qamish), tikan (tikan), alma (olma), ig'och (yog'och, daraxt), yig'och (yog'och, daraxt), tal (tol), terak (terak), uzum (uzum), chigit (chigit) [2].

Davrlar va tildagi tarixiy o'zgarishlar tufayli, Navoiy qo'llagan o'simlik nomlarining bir qismi hozirgi o'zbek tiligacha yetib kelmagan. Xullas, birinchidan, o'simlik nomlaridan shu xalq yashab kelgan tarixiy-geografik hududga va iqlimga mos keluvchi nabotot olami ko'lami namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simlik olamiga oid nomlar va ulardan yasalgan so'zlar eski o'zbek adabiy tilining shu sohadagi leksik boyligini va ularning badiiy san'atdagi o'rnini ifodalab turadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ne'matova G. H. O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari: tizimi va badiiy qo'llanishi. Filol. fan. nomz... dis. avtoref. — Toshkent, 1998, 14-b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati: 4 tomlik. – Toshkent: Fan, 1983-1985. T. I. – 782 b. T. II. – 642 b. T. III. – 622 b. T. IV. – 636 b.
3. Maxfuza Usmanova, [НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ҚўЛЛанилган Фитонимларнинг Ҳозирги Кундаги Қиёси](#), [Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54 \(science.i-edu.uz, jspi.uz\)](#)

4. Maxfuza Usmanova, [Использование в произведениях А.Навои сложных существительных с морфемой "гул"](#), [Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №82 \(science.i-edu.uz, jspi.uz\)](#)
5. Maxfuza Usmanova, [Алишер Навоийнинг Хазойин ул маоний асарига лола морфемали сўзлар](#), [Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №82 \(science.i-edu.uz, jspi.uz\)](#)
6. Usmanova, M. (2020). APPLICATION OF PHYTONYMS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(54).